

UNIVERSITETLARDA ILMIY TADQIQOT ISHLARINING OLIB BORISH JARAYONLARI

Ilmiy rahbar: Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti assistenti

Abulqosimova Dildora Asrorovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi

Abdusamatova Asal Otabek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda oliy ta'limni rivojlantirish, ilmiy darajalar, ilmiy tadqiqot ishlari, loyihalar, ilmiy ishlanmalar, kadrlar tayyorlash, Toshkent, Jizzax, Navoiy, Nukus, Qo'qon pedagogika institutlari, Jizzax davlat pedagogika instituti, davlat stipendiyalari, umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy tajriba, ta'lim tarbiya, ta'lim sohasidagi islohotlar, ilm-fan tarixi, ilk ta'lim maskanlari, ta'limdagi transformatsion jarayonlarni tahlil etishni taqozo etadi.

Kalit so'zi: «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Oliy o'quv yurtlarining maqomi, muassasalari rivoji, "Xalqaro ilmiy loyihalar tuzish", Qadimiy universitet tarixi, Ilm-fanning yuksalishi, o'qituvchi kadrlar tayyorlash.

Abstract: This article discusses the development of higher education in Uzbekistan, personnel training, Tashkent, Jizzakh, Navoi, Nukus, Kokand Pedagogical Institutes, Jizzakh State Pedagogical Institute, state scholarships, universal values, historical experience, education, reforms in the field of education, the history of science, the first educational institutions, and the transformational processes in education.

Keywords: Law "On Education", status of higher education institutions, development of institutions, "Creating international scientific projects", History of the ancient university, Rise of science, training of teaching staff.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития высшего образования в Узбекистане, подготовки кадров, Ташкентского, Джизакского, Навоийского, Нукусского, Кокандского педагогических институтов, Джизакского государственного педагогического института, государственных стипендий, общечеловеческих ценностей, исторического опыта, образования, реформ в сфере образования, истории науки, первых учебных заведений, преобразовательных процессов в образовании.

Ключевые слова: Закон «Об образовании», статус высших учебных заведений, развитие учреждений, «Создание международных научных проектов», История древнего университета, Расцвет науки, подготовка педагогических кадров.

Universitet ilmiy salohiyati sifat va son jihatdan oshdi: ilmiy darajalilar miqdori 1991-1992 o'quv yilida 50 % atrofida bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 62% ni tashkil etdi. 1991-2012 yillar davomida Samarqand davlat universiteti mamlakatimiz xalq xo'jaligi uchun 300 dan ortiq fan nomzodi va 50 ga yaqin fan doktorlarini yetishtirib berdi. Universitet olimlari davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida davlat budjetidan moliyalashtirilgan 595 ta va xo'jalik shartnomalari asosida 200 dan ortiq loyiha ustida ilmiy izlanishlar olib borib, o'zlarining ilmiy - amaliy tavsiyalari bilan xalq xo'jaligining turli sohalari rivojlanishiga hissa qo'shishdi.

1997-2011 yillar davomida Samarqand davlat universiteti olimlari 165 ta ishlanmaga patent va mualliflik guvohnomalarini olishgan. 2012 yilda faqat ilmiy ishlarga jalb qilingan chet el grantlarining hajmi 3700,0 ming AQSh dollarini tashkil qildi. Olimlarning 20 dan ortiq ilmiy ishlanmalari xalq xo'jaligining turli sohalariga, 50 dan ortiq o'quv jarayoniga tatbiq etilgan. Tadqiqot ishlarini olib borishda 15 ta ilmiy va muammoli laboratoriya asosiy poydevor vazifasini o'tadi. Bu davrda 5 ta yangi ilmiy laboratoriya va 1 ta yangi ilmiy markaz tashkil qilindi hamda ular zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlandi. 2011 yil Samarqand davlat universitetida mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan, eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanadigan "Mikroelektronika materiallarini sintezlash" ilmiy laboratoriyasini tashkil qilish ishlari boshlangan edi¹.

2006 yil O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Astronomiya instituti bilan hamkorlikda Samarqand davlat universiteti qoshida "Astronomiya o'quv-ilmiy markazi" tashkil etildi. Fan va ta'lim rivojini yanada yuksaltirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda astronomiya sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish, yoshlarning koinot ilmi sirlarini mukkamal egallashlarini ta'minlash maqsadida, hamkorlikda, Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Samarqand davlat universiteti qoshida Astronomiya ilmiy-o'quv observatoriyasi tashkil etildi. 2006 yil ushbu observatoriyada Germaniyada ishlab chiqarilgan ko'zgusi diamerti 0,48 metr va fokus masofasi 9600 mm bo'lgan "Grabb Parsons" teleskopi o'rnatildi. Professional teleskopni qo'llash texnologiyasi o'zlashtirilib, hozirgi zamon PZS (quvvatlanuvchi) priyomniklari bilan jihozlandi va kompyuterlar orqali internet tizimiga ulandi. Observatoriyada zamonaviy ilmiy tadqiqot ishlari yo'lga qo'yilgan. Jumladan, "Qalqon yulduz turkumi"dagi delta skutti turdagi yulduz (AG+24 1453)²ni kuzatish natijasida bu yulduzning hech qanday tebranishga ega emasligi va uning 6,5 soatlik aylanish davriga ega bo'lgan qo'shaloq yulduz ekanligi aniqlandi va bu yulduz xalqaro katalogga GSC

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora - tadbirlari to'g'risida"gi 2011 yil 20 maydagi PQ-1533-sonli Qaroriga asosan.

² yil 1-mart qo'shma qarori va ushbu qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida SamDU ning 2004 yil 29martdagi №50-IJ Qaroriga muvofiq SamDU qoshida "Astronomiya o'quv-ilmiy markazi" (AO'IM) tashkil etilgan (Qarang: Низомов Н., Курталиев Е.Н., Арзибеков У.Р. Самарқандда камол топган физик-академиклар. – Самарқанд. СамДУ, 2015. – Б. 25).

2007-761 raqami bilan qayta kiritildi. Observatoriyada “Butun dunyo blazar teleskoplar” deb nomlangan xalqaro dastur bo'yicha, 280 Mps masofada joylashgan blazarlar deb ataluvchi ob'ektlarni kuzatish bo'yicha ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Samarqand zaminida bu kabi observatoriyaning faoliyat ko'rsatishi, Mirzo Ulug'bekning bundan 6 asr oldin boshlab bergan astronomiya sohasidagi izlanishlarning qayta yo'lga qo'yilganligidan dalolatdir. Bugungi kunda ham ushbu observatoriyada Samarqand davlat universiteti talabalari bilan bir qatorda, O'zbekiston Milliy Universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Qarshi davlat universiteti astronomiya sohasida tahsil olayotgan bakalavr va magistrantlari bitiruv ishlarini bajarishmoqda.

Akademik T. M. Mo'minov (1992-1995 yillar Samarqand davlat universiteti rektori) tashabbusi bilan Samarqand davlat universitetida Yadro fizikasi laboratoriyasining ilmiy tadqiqotlar ko'lami kengaydi. Laboratoriyada O'zbekiston Milliy Universiteti, Samarqand davlat universiteti, Birlashgan yadro tadqiqotlari instituti Yadro muammolari laboratoriyasi (Rossiya) va Rossiya Fanlar Akademiyasining Fizika muammolari instituti bilan hamkorlikda Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan (energiyasi 22 MeV gacha va elektronlar oqimi toki 30mA gacha bo'lgan) elektronlar tezlatkichi-Mikrotron MT-22S muntazam ishlab turibdi³.

2010 yildan boshlab fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada rivojlantirish maqsadida Samarqand davlat universiteti va O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Yadro fizikasi instituti bilan hamkorlikda tashkil etilgan qurilish materiallari, oziq-ovqatlar tarkibidagi radionuklidlar miqdorini tahlil qiladigan “Radiatsion nazorat-tadqiqot laboratoriyasi” tashkil etildi⁴.

Taraqqiyotni jadallashtirishda intellektual mulk bozorini shakllantirishga qaratilgan e'tiborning yana biri, 2013 yildan buyon o'tkazilayotgan “Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar” Respublika yarmarkasidir. Yarmarka ilm - fan va iqtisodiyotning real sektori bilan integratsiyasining yorqin namunasiga aylandi va bu ishlar Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining barcha sohalarini innovatsion rivojlantirish uchun asos bo'ldi.

2012 yil Samarqand davlat universiteti va Arxeologiya ilmiy tadqiqot institutlarining ilmiy kadrlar salohiyati va moddiy-texnik bazalari asosida “Arxeolog” mintaqaviy o'quv-ilmiy markazi tashkil etildi⁵. “Arxeolog” mintaqaviy o'quv-ilmiy markazi va Arxeologiya muzeyida universitetning tarix fakulteti Arxeologiya kafedrası professor-o'qituvchilari tarix fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor M.J.Jo'raqulov rahbarligida

³ <https://www.samdu.uz/cy/pages/yadro-fizikasi>

⁴ <https://www.samdu.uz/cy/pages/yadro-fizikasi>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011 yil 19 noyabrda №6/2-sonli O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida “Oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasida innovatsion korporativ hamkorlikni yo'lga qo'yish” holati va istiqboldagi vazifalar to'g'risidagi Hay'at Qarori.

N.A.Avanesova, N.O'.Xolmatov, D.M.Djurakulova, O.T.Ergashev, A.P.Aslanov va boshqalar yillar davomida muzeyda yig'ilgan noyob arxeologik topilmalar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishi bilan birga ular xaqida talabalarga o'quv jarayonida qadim tariximiz xaqida talabalar bilimlarini ko'payishida foydalanildi. 1990-2000 yillar davomida sifat va son jihatdan o'zgarib turgan Universitetning ilmiy salohiyati 1991-1992 yillarda 58,1 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yilga kelib universitetda 9 ta fakultet, 51 ta kafedra va ilmiy laboratoriyalarda asosiy shtatda 794 nafar professor - o'qituvchilar, jumladan, 72 nafar fan doktorlari, 272 nafar fan nomzodlar faoliyat ko'rsatishdi. Ilmiy salohiyat 43,3 % ni tashkil qildi⁶. Albatta universitet ilmiy salohiyatining o'rganilayotgan yillarda pastga tushishi qoniqarli deb bo'lmaydi. Uni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, mustaqillikning dastlabki yillarida respublikadagi umumiy iqtisodiy qiyinchiliklar bo'lsa, ikkinchidan, 2007 yildan Aspirantura (doktorantura) to'g'risidagi Nizomning ilmiy tadqiqotlar yo'nalishi strukturasida tubdan yangilanishi, uchinchidan, ilmiy natijalarning iqtisodiy imkoniyatdan kelib chiqib nisbatan kam moliyalashtirilishi bilan izohlash mumkin. Muzey laboratoriya ekspozitsiyalarida Samarqand hududidagi oliy ta'limning V asrlik faoliyatini va o'ziga xos xususiyatlarini hamda buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning hayoti va uning Samarqand ilmiy-madaniy muhitidagi o'rni, yaratgan asarlarining ahamiyatini ochib berishga alohida ahamiyat qaratildi.

1995 yildan boshlab universitetda "Oqsoqollar kengashi" ish boshladi. 2009 yilda esa universitet "Nuroni" jamg'armasi boshlang'ich tashkiloti "Oqsoqollar kengashi" bilan birlashtirildi. Kengash o'z faoliyatini fidoiy ustozlarning bibliografik ocherkini yaratishdan boshlab, "Barhayot siymolar", "Universitet fidoyilari" mavzusida 4 jildlik kitob tayyorladi.

"Kamolot" Yoshlar ijtimoiy harakati tashkil etilganda (2001 yildan) O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati va uning boshlang'ich tashkiloti yetakchisiga yoshlarning huquqlari va manfaatlari himoyachisi sifatida rektor muovini maqomi berilgan. Ushbu tashkilot Samarqanddagi boshlang'ich tashkilotlarning eng yirigi hisoblangan. Tashkilot rahbarlari⁷ uning a'zolari soni qisqa muddatda 6983 bakalavr va 487 magistrni o'z ichiga olgan edi. Tashkilot faollari nafaqat viloyatda balki, respublika miqyosida o'tkazilayotgan tadbir va tanlovlarda ham muvoffaqiyatli ishtirok etib kelishdi. Ular orasida "Harbiy xizmatni o'tab kelgan talabalar bilan ishlash markazi"ning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi xizmatlari katta bo'ldi. Universitetning 60 ta iqtidorli talabani qamrab olgan qishki faollar maktabi

⁶ Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qilish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, iqtidorli talaba-oshlarni bilib olish, ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish yuzasidan 2016 yilda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha yillik hisoboti. – B. 3.

⁷ Boshlang'ich tashkilot tashkil etilgandan buyon unda Salohiddin Davronov (2001-2002), Sirojiddin Mirzaev (2002-2003), To'xtamish Azizov (2003-2005), Rustam Qobilov (2005-2010), Abror Jabborov (2010-2012), Husan To'xtayev (2012 yildan Yoshlar Ittifoqiga aylangach – 2020 yilgacha), Allayor Norboev (2020 yildan hozirgacha) rahbarlik qilmoqda.

marshg'ulotlarining har yili respublika ahamiyatidagi Botanika sanatoriysida o'tkazilishi an'anaga aylandi⁸.

Universitet talabalarining Vatanga va o'z xalqiga mehr-muhabbatini, milliy g'urur, iftixor tuyg'ularini yuksaltirishga qaratilgan an'anaviy "Marhabo talantlar", "Universitet bahori" festivali, "Yagonasan, muqaddas Vatan!", "O'zbekiston Vatanim manim", "Barhayot an'analar", "Ma'naviyat-qalbim quyoshi" kabi ko'riktanlovlarni o'tkazish yo'lga qo'yilgan.

Universitet va fakultetlarda talabalar ilmiy jamiyati faoliyati kengaytirildi.

Iqtidorli talabalar bilan ishlashga yo'naltirilgan ilmiy to'garaklar faoliyati samaradorligi oshdi, 2005-2015 yillarda to'garaklar soni 68 taga yetkazildi. Bu to'garaklarda qatnashayotgan talabalar soni ortib bordi, 2005-2015 yillarda to'garaklar faoliyatida 3000 ga yaqin talabalar qatnashdi, to'garak a'zolarining 500 dan ortig'ini iqtidorli talabalar tashkil etdi. Shu o'rinda o'zbek filologiyasi fakulteti tarkibida uzoq yillardan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Shalola" ilmiy ijodiy guruhi, biologiya ta'lim yo'nalishidagi "Ornitologlar" klubi, fiziklarning "Radioelektronika", ximiklarning "Yosh kimyogar", "Talaba" sport klubi, "Quvnoqlar va zukkolar", "Zakovat", "Notiqlar", "Munozara" klublari, "Guldasta", "Ilhom" teatrstudiyasi kabilar talabalarda katta qiziqish uyg'otdi.

1992-1993 o'quv yilida Samarqand davlat universitetidagi iqtidorli talabalar soni 107 nafar bo'lgan bo'lsa, keyingi 5 yilda ilmiy ish bilan shug'ullanayotgan talabalar va magistrantlar soni 30-40 % ga oshdi, 2011-2012 o'quv yilida talabalardan 533 nafari iqtidorli talaba sifatida qayd etilgan (Ilova №39).

1991-2016 yillarda Samarqand davlat universiteti talabalari orasidan 17 nafar Prezident stipendiantlari, 69 nafar talabalar Ulug'bek, Beruniy, Navoiy nomli atoqli shaxslar nomidagi stipendiantlar, bundan tashqari, Samarqand davlat universitetining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan 122 nafar talaba universitet (Akbar Otaxo'jaev, Vohid Abdullaev, G'ofur G'ulom, Botirxon

"Nihol-2002" teatr festivalida 2-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, "Universiada-2002" musobaqalarida shaxmat, yengil atletika, dzyudo, erkin kurash bo'yicha 4 ta oltin, 5 ta kumush, 13 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi.

Xullas, mustaqillik yillarida universitet faoliyati va unda olib borilgan ishlar professor-o'qituvchilar faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bordi. Bu ishlar bir tomondan, ta'lim mazmunini yangi bilimlar bilan boyitib, sifatini oshirish imkoniyatini yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirib, zamonaviy oliygohga ichki va tashqi bozorga nafaqat o'zining an'anaviy "mahsuloti", ya'ni sohalar ehtiyojidan kelib chiqqan holda tayyorlanayotgan yuqori malakali kadrlar, balki oliy malakali ilmiy va ilmiypedagog

⁸ <https://www.samdu.uz/uz/news/20495>

kadrlar hamda sanoatda mavjud muammolarning ilmiy asoslangan yechimlari bilan chiqish imkonini berdi. Ya'ni, oliy ta'lim muassasalari qadamba qadam intellektual mulk bozorining to'laqonli sub'ektlariga aylanib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Нуруллаева, Ш. У. (2014). ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ. In Подготовка профессиональных управленческих кадров: опыт, проблемы, инновационные образовательные технологии (pp. 60-64).
2. Мажидов Ш. Ф, Саидова Х. Реформы в сфере образования и личность преподавателя //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2007. – Т. 5. – С. 225-225.
3. Nurullayeva, S. H. «Pedagogical cooperation in higher education.» Современное музыкальное образование: традиции и инновации. 2016.
4. Abulqosimova D.A. O'zbekistonda oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining mohiyati (1991-2021yy) ISSN 2181-7286 3/2025 Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар
5. Khalilovna, O. N., Lutfullayevna, B. L., Kosimovich, N. U., & Yusupovna, R. M. (2020). HISTORICAL STUDIES IN THE PEDAGOGICAL TRAINING AND WAYS TO IMPROVE VOCATIONAL TRAINING. Journal of Critical Reviews, 7(3), 274-277.
6. Jamshidovna A. P. Master's student of the " World History" department of Samarkand State University //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 47-51.
7. Khalilovna, O. N, Axmatjanovna, M. M., Kosimovich, N. U., & Botirovna, K. V. (2020). Main core and meaning of shaping professional faith. Journal of Critical Reviews, 7(2),.
8. Abulqosimova D.A. O'zbekistonda oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining mohiyati (1991-2021yy) . ISSN 2181-7286 3/2025 169-173. Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар.
9. ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI–XX ASR BOSHLAGI) GTursunova - социально-гуманитарных наук Actual Problems of, 2025
10. Safarovich G. S., Gavhar T. Turkestan in the Russian Empire (The second half of the 19th century and the beginning of the 20th century) //International Journal on Integrated Education. – Т. 2. – №. 6. – С. 138-144.
11. Abdug'aniyev, Bekzod. "O'ZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 5.5 (2025): 57-64.
12. Abulqosimova D.A. Samarqand davlat universitetida pedagogik jarayonlarni innovatsion usullar orqali tashkil etishning samaradorligi.

O'ZBEKISTON OLIMLARINING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI ilmiy-nazariy, metodik jurnali., 2025

13. Abulqosimova D.A. Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabalarining so'ngi yillardagi erishgan yutuqlari TRANSFORMING EDUCATION THROUGH SCIENTIFIC DISCOVERY Vol. 1 No. 1 (2025)

14. Shamsutdinov R. Bobur nomidagi Andijon davlat universitetining tarixiy ildizlari, tashkil topishi va faoliyati. – Toshkent.: Sharq, 2014.–B.219-228.

16. Tyurikov V, Shagulyamov R. Nezavisimaya Respublika Uzbekistan.– T,1997.S.73

17. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. – T., 1992. – №9.

18. Ergashev Q. O'qituvchi tayyorlash muammolari // Xalq ta'limi, 1996, №3, 45-47.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoyishi.

20. Мажидов Ш. Ф, Саидова Х. Реформы в сфере образования и личность преподавателя //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2007. – Т. 5. – С. 225-225.

21. Nishonov S., Haydarov H., Jizzaxning to'ng'ich oliy o'quv yurti. Jizzax, - 1994, -B.11

22. Jamshidovna A. P. Master's student of the" World History" department of Samarkand State University //Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 47-51.

23. Abulqosimova D.A.1991-2001 yillarda Samarqand davlat universiteti faoliyatining yangi bosqichga ko'tarilishi 2025-4/3 Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi.

24. **Sh. R. Umurov.** Благотворительный фонд "вакф" и его деятельность в "новейшем Узбекистане Global Trends In Education And Research Development 15.05.2025. 1645-1649 bet.

<https://gisconf.com/index.php/GTERD/issue/view/9>

25. **Sh. R. Umurov.** Ijtimoiy va gumanitar fanlarning pedagogik ahamiyati: Xo'ja vali avlodlari misolida Maktabgacha va maktab ta'limiherald. 05.06.2025. 692-694bet. www.geniusjournals.org